

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK FOLK TALES

Jalolova Feruza Normurodovna

NUUz, senior lecturer of the department

Foreign language and literature

Abstract. This article analyzes the linguocultural features of English and Uzbek folk tales. Folk tales reflect the historical, cultural, and social life of a people. Through them, customs, values, moral views, worldview, and cultural heritage of the nation are revealed. Although English and Uzbek folk tales have their unique characteristics, they are united by common humanistic ideas - the triumph of good over evil, justice, courage, and generosity. The study examines the similarities and differences in characters, settings, plots, and oral traditions in the folk tales of both cultures from a linguocultural perspective.

Keywords: folk tale, linguoculture, folk creativity, English folk tales, Uzbek folk tales, oral tradition, plot, moral values.

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Jalolova Feruza Normurodovna

O'zMU, Xorijiy til va adabiyoti

kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: missjalolova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Xalq ertaklari xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotining aksidir. Ular orqali xalqning urf-odatlar, qadriyatlar, axloqiy qarashlari, dunyoqarashi va madaniy merosi namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek ertaklari o'ziga xos jihatlarga ega bo'lsa-da, ularni umumiy gumanistik g'oyalar - yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi, adolat, jasorat va saxovat kabi tushunchalar birlashtirib turadi. Tadqiqotda har ikki madaniyatdagi ertaklarning personajlar, muhit, syujetlar va og'zaki an'ana doirasidagi o'xshashliklari hamda tafovutlari lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ertak, lingvomadaniyat, xalq ijodi, ingliz ertaklari, o'zbek ertaklari, og'zaki an'ana, syujet, axloqiy qadriyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N52>

Kirish. Ertaklar xalq ijodining qadimiy va boy janrlaridan biri bo'lib, ular orqali xalqning tafakkuri, falsafasi va dunyoqarashi aks ettiriladi. Xalq ertaklari ko'p asrlik og'zaki an'analar asosida shakllangan bo'lib, ular hayotiy, maishiy, sehrli va ijtimoiy mazmundagi voqealarni qiziqarli syujetlar orqali bayon qiladi. O'zbek va ingliz xalq ertaklari o'rtasida ko'plab o'xshashliklar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning har biri o'ziga xos madaniy kontekstda shakllanadi. Ushbu maqolada ushbu ertaklarning lingvomadaniy xususiyatlari, ya'ni tilda va madaniyatda qanday ifodalanganlik jihatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ko'plab olimlar xalq ertaklarini turli nuqtai nazardan o'rganib chiqqanlar. O'zbek ertaklarini B.Karimov, F.Abdullaev, M.Afzalov, K.Imomov,

X.Egamov kabi olimlar tahlil qilgan bo'lsa, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li kabi ertakchilardan yozib olgan namunalar asosida ilmiy xulosalar berganlar. Ingliz ertaklari esa aka uka Grimmlar, Sharl Perro kabi mualliflar tomonidan jamlab yozib olingan. Lotin, rus, nemis va ingliz tillaridagi “ertak” so'zining etimologiyasi ham adabiy manbalarda chuqur o'rganilgan. M.Qoshg'ariy “Devoni lug'atit turk” asarida ertakni “yetuk” deb atagan [5; 98]. I.A.Ilinning ta'biri bilan aytganda, ertaklar — odamlarning diniy tafakkur paydo bo'lishidan oldingi hayot falsafasini badiiy shaklda ifodalovchi janrdir [3; 240].

Ushbu maqola qiyosiy — tahliliy metod asosida yozilgan bo'lib, unda ingliz va o'zbek xalq ertaklari syujeti, leksikasi, personajlari va madaniy kontekstdagi ifodalanish shakllari lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganildi. Ertak matnlari, lug'aviy ta'riflar, adabiy va madaniy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, og'zaki an'analar, etnik qadriyatlar va madaniy me'yorlarning ertaklarda qanday ifodalangani solishtirma yondashuv orqali tahlil qilindi.

Muhokama. Ingliz tilida ertakni ifodalash uchun “hikoya, umuman har qanday voqea” degan ma'noni anglatuvchi “*tale*” so'zi ishlatiladi, u qadimgi ingliz tilidagi “*tal*” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, – *series, calculation*, shuningdek, – *story, tale, statement, deposition, narrative, fable, accusation, action of telling* ma'nolarini beradi. Longman nashriyoti lug'atida *tale* so'ziga “kimningdir boshidan kechirgan hayajonli voqealar haqida hikoya” sifatida ta'rif beriladi – *a story about exciting imaginary events... that happened to someone....* “Fairy-tale – tale about fairies (*fairy small imaginary being with supernatural powers, able to help or harm human beings*) [7]”.

Ertak atamasi M.Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida “yetuk” tarzida qo'llanilgan [5; 98]. Xalqimiz orasida hozirgi paytda xam *cho'pchak, utuk, matal, varsaqqa* kabi so'zlar ertak manosini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ertak so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

1. Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli–sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho'pchak. *Ertak aytmoq. Bir ariqda sut, ikkinchi ariqda sharbat – ertaklarda bo'ladi!* S. Anorboev, Oqsoy. *Ilmiy fantastik asarlar bilan adabiy ertaklar o'zaro yaqin aloqadadir.* “Fan va turmush”.

2. Hikoya, qissa, voqea. *Unsin hamma voqeani – akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampirdan to'la eshitdi.* Oybek, TTT. *Yolg'iz Tiktepa qishlog'i–dagina emas, tevarak qishloqlarda ham mulla Obidning ertagi, ekindagi muvaffaqiyati og'izdan og'izga yurib ketdi.* A. Qodiriy, Obid ketmon [6; 51].

Xalq ertaklarining eng keng tarqalgan tasnifi quyidagicha: hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar va hayotiy–maishiy ertaklar.

Ertak syujetlari an'anaviy arxaik dunyoqarashni aks ettiradi. Odamlarning yaxshi va yomon, mehribonlik va yovuzlik haqidagi g'oyalari o'ziga xos tarzda taqdim etiladi. Ertaklar yaxshilikning yomonlikdan ustunligini, aynan “yaxshilik” yo'lining dolzarbligini tushuntiradi. Ertakning asosiy vazifalaridan biri bu uning ijtimoiy va tarbiyaviy vazifasidir.

Ingliz va o'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy jihatlarini ularning jamiyatdagi qadriyatlarni qanday aks ettirishini ochib beradi. Har ikki madaniyatda ertaklar axloqiy, ijtimoiy va estetik me'yorlarni yosh avlodga yetkazish, ularni tarbiyalash va milliy tafakkurni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Ingliz ertaklarida ko'pincha jasorat, adolat, aqllilik va shaxsiy erkinlik g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, “Jack and the Beanstalk” (Jek va Sehrli dukkak) ertagida qahramon qashshoqlikdan chiqib, sehrli dukkaklar orqali gigantlar

dunyosiga kiradi va jasorati, aql-idroki evaziga boylikka erishadi. Bu syujet individual harakat va tavakkalning muvaffaqiyat olib kelishiga urg'u beradi. O'zbek ertaklarida esa ko'proq jamoaviylik, oilaviy birlik, kattalarga hurmat, sabr-toqat va saxovat kabi qadriyatlar asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida mehribonlik qilgan qiz mukofotlanadi, badjahl va xunuk niyatdagi qiz esa jazolanadi. Bu orqali o'zbek xalq ertaklarining axloqiy-gumanistik xabari aniq ifodalanadi – yaxshilik oxir-oqibat g'alaba qiladi, yomonlik esa jazoga loyiq.

Jinsiy rollar ham ertaklarda muhim ideologik funksiyani bajaradi. Ingliz ertaklarida "Cinderella" (Zolushka) kabi syujetlarda ayol obrazi go'zal, sabrli, baxtga loyiq, lekin erkakning – odatda shahzodaning – aralashuvisiz najot topolmaydigan tarzda tasvirlanadi. Bunda an'anaviy gender stereotiplari aks etadi. Ammo zamonaviy talqinlarda, masalan, "Brave" (Jasur qiz Merida) kabi ertaklar orqali bu rollar yangicha ko'rinishga ega bo'lmoqda – qahramon ayol mustaqil, faol va qutqaruvchi rolida chiqadi. O'zbek ertaklarida esa "Boy ila gado", "Tillaqush" yoki "Malikai ayyor" kabi ertaklarda erkaklar ko'pincha asosiy harakat qiluvchi, jasoratli va donishmand qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, "Malikai ayyor" ertagidagi ayol qahramon o'zining donoligi, gapga chechanligi va tadbirkorligi bilan ajralib turadi, bu esa o'zbek ertaklarida kuchli va faol ayol obrazlari ham mavjudligini ko'rsatadi.

Personajlar tizimi esa har bir madaniyatning mifologik asoslarini ochib beradi. Ingliz ertaklarida sehrGARlar, peri-qizlar, jodugarlar va gapiradigan hayvonlar orqali g'ayritabiiy dunyo yaratiladi. "The Frog Prince" (Qurbaqa shahzoda) yoki "Snow White" (Oppog'oy) ertaklarida jodugarlar muhim konflikt manbai bo'lsa, sehrli mavjudotlar esa ko'pincha qahramonga yordam beradi. O'zbek ertaklarida esa "Jinlar bazmi", "Bo'z bolajon" yoki "Alif va Bahodir" kabi syujetlarda jinlar, ruhlar, afsonaviy maxluqlar ko'p uchraydi. Ular orasida Alif – ulkan kuch va kuch-quvvat timsoli bo'lib, aksariyat hollarda qahramonning dushmani sifatida paydo bo'ladi. Bu obrazlar orqali o'zbek xalqining islomiy va mahalliy e'tiqodlar sintezi, diniy-falsafiy qarashlari ochiladi.

Muhit ham ertaklarning milliy ruhini belgilaydi. Ingliz ertaklari fantastik dunyolar, sehrli o'rmonlar, uzoq qiroliklar, muhtasham qal'alar asosida quriladi. Masalan, "Sleeping Beauty" (Uyqudagi malika) yoki "Rapunzel" kabi ertaklarda sehrli tabiat, sehrGARlar qal'asi asosiy fon bo'lib xizmat qiladi. O'zbek ertaklarida esa cho'l va tog'lar, qadimiy shaharlar (masalan, Buxoro, Samarqand), bozorlardagi hayot, yurt va karvonsaroylar hikoya maydoni sifatida namoyon bo'ladi. "Boy ila gado" yoki "Tillaqush" kabi ertaklarda karvon yurishlari, savdo-sotiq, mehmondo'stlik va sayohat motivlari xalqning tarixiy yashash tarzini yoritadi. Bu manzaralar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining madaniy-makondagi ifodasidir.

Og'zaki an'ananing tutgan o'rni esa o'zbek ertaklarining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ingliz ertaklari XIX asrda aka-uka Grimmlar va Sharl Perro tomonidan to'plab nashr etilganidan so'ng yozma shaklda yashab kelmoqda. O'zbek ertaklari esa hozirgacha og'zaki shaklda ustozlardan shogirdga, ota-onadan bolalarga yetkazilib kelinadi. Masalan, "Qo'shchinor", "Shahzoda va SehrGAR ayol", "Bibi Seshanba" kabi ertaklar aytilish jarayonida she'riy ifoda, takrorlovchi iboralar, maromli ohang orqali esda qolarli va ta'sirchan bo'lib, folklorning poetik xususiyatlarini ifodalaydi. Bu jihat ertaklarning nafaqat mazmuniy, balki stilistik, fonetik va estetik boyligini ham ochib beradi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek ertaklari o'rtasidagi umumiyliklar – axloqiy saboqlar, yaxshilikning g'alabasi, sehrli syujetlar – universal qadriyatlarni aks ettirsa, farqlari esa har bir

xalqning tarixiy tajribasi, diniy-falsafiy dunyoqarashi va madaniy kodlariga asoslangan. Misollar orqali ko'rinadiki, ertaklar nafaqat og'zaki ijod mahsuli, balki jamiyat tafakkurining, estetik qarashlarining, tarixiy xotirasining, va eng muhimi, madaniy identitetining timsolidir.

Natijalar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek xalq ertaklari o'zaro lingvomadaniy jihatdan ko'plab o'xshashlik va tafovutlarga ega:

- ✓ Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida asosiy mavzular va qadriyatlar farq qiladi: ingliz ertaklarida jasorat, adolat va shaxsiy jasorat ustuvor bo'lsa, o'zbek ertaklarida oilaviy qadriyatlar, jamoaviylik va kattalarga hurmat asosiy o'rin egallaydi;
- ✓ Jinsiy rollar ikki madaniyat ertaklarida an'anaviy tarzda tasvirlangan, biroq ingliz ertaklarida zamonaviy davrda bu rollarning o'zgarishi kuzatilmoqda, o'zbek ertaklarida esa an'anaviy obrazlar saqlanmoqda;
- ✓ Personajlar tarkibida ingliz ertaklari sehrli xotinlar, shahzodalar, jodugarlar va gapiradigan hayvonlarni ko'proq o'z ichiga olsa, o'zbek ertaklarida ruhlar, jinlar, dono keksalar va mahalliy qahramonlar markaziy o'rinda turadi;
- ✓ Muhit jihatidan ingliz ertaklari ko'proq sehrli o'rmonlar, qal'alar va qirolliklarda kechsa, o'zbek ertaklari Markaziy Osiyo cho'llari, tog'lari va tarixiy shaharlar fonida yaratilgan;
- ✓ Og'zaki an'ana o'zbek ertaklarida hozir ham faol saqlanib kelmoqda, she'riy uslub va takrorlashlar bu an'anani mustahkamlaydi, ingliz ertaklari esa ko'proq yozma shaklda tarqaladi;
- ✓ Ingliz va o'zbek ertaklari o'z madaniyatlari va tarixiy meroslarini aks ettirib, lingvistik va madaniy jihatdan chuqur tahlilga loyiq bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari aniqlanadi.

Xulosa. Ingliz va o'zbek xalq ertaklari o'zaro ko'plab umumiyliklarga ega bo'lishiga qaramay, har biri o'z madaniy muhitining, tarixiy tajribasining va ijtimoiy qadriyatlarining noyob aksidir. Har ikki millat ertaklari yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi, jasorat, adolat, saxovat va aql bilan harakat qilish kabi universal mavzularni ilgari suradi. Biroq, ingliz ertaklarida individualistik yondashuv – qahramonning shaxsiy harakati va tavakkali orqali muvaffaqiyatga erishish g'oyasi ustuvor bo'lsa, o'zbek ertaklarida jamoaviylik, oilaviy birdamlik va insonlararo hurmat-izzat asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi.

Jinsiy rollarning tasviri ham har ikki madaniyatda an'anaviy xarakter kasb etgan bo'lsa-da, zamonaviy talqinlarda bu rollar asta-sekin o'zgarib borayotganini ko'rish mumkin. Ingliz ertaklarida qadimgi saroy va qirollik timsollari orqali fantastik olam yaratilgan bo'lsa, o'zbek ertaklarida real hayotga yaqin, mahalliy manzaralar va tarixiy shaharlar konteksti muhim ahamiyat kasb etadi. Sehrli mavjudotlar, jinlar, ruhlar, dono keksalar va jasur qahramonlar har ikki ertaklar tizimida muhim dramatik funksiyani bajaradi, ammo ularning milliy xususiyatlari ularni bir-biridan keskin ajratib turadi.

Ertaklarning og'zaki an'anada saqlanib kelayotgani, ayniqsa o'zbek folklorida, ularning lingvomadaniy qiymatini yanada oshiradi. She'riy uslub, takrorlovchi iboralar va ritmik tuzilma orqali ertaklar nafaqat axloqiy saboq, balki estetik zavq manbai bo'lib xizmat qiladi. Ingliz ertaklari esa yozma shaklga o'tgani bilan keng madaniy maydonda ertak janrining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek ertaklarini lingvomadaniy tahlil qilish orqali har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti, qadriyat tizimi, estetik qarashlari va tarixiy merosi namoyon

bo'ladi. Bu esa ertaklarni nafaqat bolalar uchun qiziqarli hikoya, balki chuqur madaniy va lingvistik manba sifatida o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullaev, F. O'zbek xalq og'zaki ijodi: ertaklar. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2010
2. Egamov, X. O'zbek xalq adabiyoti va folklori. Toshkent: Sharq. 1998
3. Ильин И.А. Одинокий художник / Сост. предисл. и примеч. В.И. Белов. – Москва: Искусство, 1993
4. Karimov, B. O'zbek xalq ertaklari tarixi va janrlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. 2005
5. Қошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк, биринчи том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960
6. ЎТИЛ. 5 Жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2006
7. <https://www.ldoceonline.com/dictionary/tale>
8. <https://fairytalez.com/region/english/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).